Obligatsiya moliya bozori instrumenti sifatida, milliy obligatsiyalar bozori	916
Avezov Ibrohim Ilxomovich, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Barqaror rivojlanish doirasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarining yashil texnologiyalar innovatsiyasiga ta'sirini baholash.....	921
Meliqo'zieva Dilrabo Muxitdin qizi	
Yashil iqtisodiyot – barqaror taraqqiyotga olib boruvchi yo'l.....	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
Научно-теоретические основы экономической и эколого-экономической эффективности предприятий горнодобывающей промышленности.....	930
Раматов Зафарбек Жуманиязович	
Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	938
D.E.Qarshiev	
Kichik sanoat zonalarida investitsion jozibadorlikni oshirishni investitsion faollikka ta'siri.....	943
Mannapova Shaxnoza Elshodovna	
Mahalla institutining samaradorligi tahlili: so'rovnoma yondashuvi	947
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Формирование человеческого капитала в условиях демографических изменений: опыт и перспективы для узбекистана.....	955
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
Farmasevtika kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo'nalishlari	962
Baxrombek Bobojonov	
“Hududlarda sug'urtaga bo'lgan talabning ekonometrik tahlili”	967
Bekberganova Mohira Ravshonbekovna	
O'zbekiston va xalqaro amaliyotda raqamli marketing vositalaridan foydalanish: muammolar va yechimlar	973
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
Условия эксплуатации и экологическая безопасность автотранспортной системы на основе энергосберегающих технологий	978
Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
O'zbekiston tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanishda xorijiy tajribalarni qo'llash.....	982
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	



Buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish yo'llarida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar	987
Sattorov Mirjahon	
Особенности маркетинговых стратегий в условиях ограниченных ресурсов и узкой потребительской аудитории	991
Дебердиев Анвар	
DEbitorlik va kreditorlik qarzlarini rejalashtirish masalalari.....	995
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Ibragimova Iroda Rashid qizi	
Инвестиционная программа узбекистана по привлечению иностранных инвестиций	1000
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Бекмуратов Шухрат Даулетмуратович	
Turistik mahsulotni shakllantirishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash.....	1005
Raxmonov Siyovush Turob o'g'li	
Uglerodsiz energiyaga o'tishda o'zbekistonning yashil strategiya yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'siri.....	1011
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Цифровая устойчивость регионов: применение аналитики больших данных для оценки и управления экологическими рисками	1016
Маликов Шохрух Шокирович, Камалов Шухрат Камалович	
Разработка риск-ориентированной модели внутреннего контроля предприятия на этапе планирования налогов в условиях дистанционного налогового мониторинга	1024
Галеева Н.Н., Э.А.Халикова, Абдусаломова Гулчеҳра Мирзо кизи	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца	1029
Мухаммадиева Лола Атамуратовна	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	1036
Uskenbaeva Dilnoza Boxodir qizi	
Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе.....	1043
Махмудова Севара Улугбековна	
Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati	1048
Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxona darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi	1063
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов	1070
Гулираъно Носирова Абдулазиз кизи	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati	1073
Bobaev Isroiljon Abdinabievich	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции	1078
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlar hamda tendensiyalari.....	1083
Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
Nazarov Qilich Xolmuradovich	



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Nazarov Qilich Xolmuradovich

TDIUSF "Moliya, soliq va bank ishi"

kafedrası dotsenti, PhD

kilichnazarov447@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining 2020–2025-yillarda bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklarining kredit portfeli va risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish, shuningdek, davlat ishtirokidagi tijorat banklari faoliyatini kompleks transformatsiya qilish, banklarning davlat aksiyalari paketini tajribali investorlar ishtirokida raqobatbardosh savdolar orqali sotish, davlat ulushi mavjud korxonalar bilan birgalikda isloh qilish milliy bank tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar masalalari, kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklarni boshqarish va ularni kamaytirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Muammoli kreditlar hajmini kamaytirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, investitsion jozibadorlik, aktiv, samaradorlik, muammoli kredit, kapitallashuv, barqarorlik, risk, omonatchi, investor.

Abstract: The Strategy for Reforming the Banking System of the Republic of Uzbekistan for 2020–2025 outlines key priorities such as improving the management of loan portfolios and risk practices in commercial banks, as well as the comprehensive transformation of state-involved commercial banks. The strategy provides for the sale of state-owned shares to experienced investors through competitive bidding, based on the principle of selective public sector participation. The concurrent reform of commercial banks and state-owned enterprises is defined as a crucial direction in modernizing the national banking system. This article analyzes the issue of non-performing loans in Uzbekistan's commercial banks, assesses risk management in the lending process, and examines mechanisms for reducing credit-related risks. Practical proposals and recommendations are presented to reduce the volume of non-performing loans.

Key words: commercial bank, investment attractiveness, asset, efficiency, non-performing loan, capitalization, stability, risk, depositor, investor.

Аннотация: В Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020–2025 годы приоритетными направлениями определены совершенствование практики управления кредитным портфелем и рисками в деятельности коммерческих банков, а также комплексная трансформация банков с государственным участием. Предусмотрена реализация пакета государственных акций компетентным инвесторам посредством конкурентных торгов с учётом участия государственного сектора. Одновременное реформирование коммерческих банков и предприятий с государственной долей признано ключевым элементом модернизации национальной банковской системы. В статье анализируются проблемы проблемных кредитов в коммерческих банках Узбекистана, рассматриваются вопросы управления рисками при кредитовании и пути их минимизации. Разработаны практические предложения и рекомендации по сокращению объёма проблемных кредитов.

Ключевые слова: коммерческий банк, инвестиционная привлекательность, актив, эффективность, проблемный кредит, капитализация, устойчивость, риск, вкладчик, инвестор.

KIRISH

Bugungi kunda xalqaro miqyosda tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, ularning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash va innovatsion bank mahsulotlarini amaliyotga joriy etish orqali bank xizmatlari samaradorligini oshirish hamda boshqaruv amaliyotini takomillashtirish hozirgi bank faoliyatining asosiy yo'nalishlariga aylangan. Shu bilan birga, bugungi kunda tijorat banklari duch kelayotgan dolzarb muammolardan biri – mijozlarga berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmasligidir.

Muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari va ularni aniqlash yo'llarini tahlil qilish, risklarni samarali boshqarish va maqsadli choralarni ishlab chiqish zarurati oshib bormoqda. Ushbu muammolar nafaqat tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlariga, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmoni, 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son² Farmoni hamda 2023-yil 18-avgustdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-283-son³ qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tegishli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uning investitsion jozibadorligini oshirish uchun, eng avvalo, tijorat banklarining moliyaviy sog'lomligini mustahkamlash zarur. Ayniqsa, berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmasligi holatlarining ortib borayotgani bank faoliyatining eng jiddiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli muammoli kreditlarning vujudga kelish omillarini chuqur o'rganish, kredit risklarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishda tijorat banklarining roli ortib borayotgan hozirgi sharoitda, ularning samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri milliy iqtisodiyotga ko'rsatgan ijobiy ta'siri bilan izohlanadi. Chunki moliyaviy jihatdan sog'lom va barqaror tijorat banklari iqtisodiyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy zarbalarga bardosh bera olish salohiyatiga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash masalasi zamonaviy bank faoliyatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Bu borada xalqaro va mahalliy olimlarning izlanishlari ushbu muammo yechimlariga nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro miqyosda, R. Laeven va L. Valencia tomonidan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar bank inqirozlari sharoitida aktivlar sifati pasayishi va muammoli kreditlar hajmining oshishi bank tizimining zaiflashuviga olib kelishini ta'kidlaydi. Ular muammoli kreditlarni samarali boshqarish uchun restrukturizatsiya, aktivlarni ajratish kompaniyalari va davlat kafolatlaridan foydalanishni taklif etadi.

International Monetary Fund ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar muammoli kreditlarning oldini olishda risklarni erta aniqlash va aktivlar sifatini baholash mexanizmlarining o'rnini chuqur asoslab bergan. Ayniqsa, ular bank nazorati va regulyatorlarning roliga alohida urg'u beradi.

Yevropa Markaziy banki o'z hisobotlarida muammoli kreditlar ulushining kamayishi bank sektorining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etadi. Ular kredit portfellarini diversifikatsiya qilish, kreditlash standartlarini kuchaytirish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirishni samarali yechim sifatida ko'rsatadi.

O'zbekiston tajribasiga murojaat qilar ekanmiz, Ibragimov M.X. o'zining "Tijorat banklarida kreditlash asoslari" asarida muammoli kreditlar sabablarini, ularni aniqlash va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish usullarini mahalliy sharoitda tahlil qilgan. Soliyev A.A. esa bank amaliyotida kredit monitoringi tizimini kuchaytirish orqali kredit portfelining sifatini yaxshilash mumkinligini asoslab bergan.

Umuman olganda, adabiyotlarda muammoli kreditlar masalasi bank barqarorligining muhim ko'rsatkichi sifatida baholanadi va ularni samarali boshqarish tizimiy yondashuvni, ilg'or nazorat texnologiyalarini hamda kredit siyosatining qat'iyiligi talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda asosiy ma'lumotlar O'zbekiston tijorat banklarining yillik hisobotlari, Markaziy bank statistikasi hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar (IMF, ECB) nashrlaridan olindi. Ma'lumotlar tahlilida taqqoslash, dinamik o'sish ko'rsatkichlarini aniqlash va grafik-tahliliy usullardan foydalanildi. Shuningdek, muammoli kreditlar ulushining o'zgarishiga empirik yondashuv asosida baho berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) bankning moliyaviy holati va rentabelligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bunday kreditlar, asosan, mijozlar – qarz oluvchilarning qarzlarini o'z vaqtida to'lamasligi, shuningdek, boshqa tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga keladi. Muammoli kreditlarni qisqartirish bank likvidligini oshirish, omonatchilar va investorlar ishonchini saqlab qolish imkonini beradi. Shuningdek, ularni kamaytirish uchun

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi «2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi «Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-283-son Qarori. <https://lex.uz/docs/6576274>.



banklar tomonidan o'z vaqtida monitoringlar o'tkazilishi, kredit risklari aniqlanib, boshqarilishi va tartibga solish mexanizmlaridan samarali foydalanilishi lozim.

1-jadval. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida ma'lumot, mlrd.so'mda⁴

№	Bank nomi	Kreditlar			Muammoli kredilar (NPL)			Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, %		
		2023	2024	2025	2023	2024	2025	2023	2024	2025
	Jami	390 049	471 406	533121	13 992	16 621	21185	3,6	3,5	4,0
	Davlat ulushi mavjud banklar	324 681	333298	366731	12 643	13267	14344	3,9	4,0	3,9
1	O'zmilliy bank	89 410	99 423	108014	2 638	3 098	3275	3,0	3,1	3,0
2	O'zsanoatqurilish bank	48076	57 124	65498	1359	1 283	1844	2,8	2,2	2,8
3	Agrobank	43846	54 483	59436	1685	2 071	2903	3,8	3,8	4,9
4	Asaka bank	36 742	39 213	38717	1 707	1 731	1752	4,6	4,4	4,5
5	Xalq banki	21 666	24 549	29620	2 584	1 855	1253	11,9	7,6	4,2
6	Biznesirivojlan tirish banki	20 292	21 801	22527	790	1 935	1915	3,9	8,9	8,5
7	Mikrokredit bank	13 319	14 437	17416	635	865	804	4,8	6,0	4,6
8	Turon bank	9 431	11 894	12558	242	271	354	2,6	2,3	2,8
9	Aloqa bank	9 162	10 294	12944	186	157	242	2,0	1,5	1,9
	Boshqa banklar			66 391			6841			4,0
11	Poytaxt bank	74	79	302	0,7	2	0	1,0	2,3	0,0
12	AVO(O'zagroëks portbank) bank	6,2	7	283	6,0	0,0	36	96,3	0,0	12,5
	Ipoteka bank	32 658	37264	35094	810	1733	3577	2,5	4,7	10,2
14	Kapital bank	15 408	26 586	31584	181	375	1437	1,2	1,4	4,5
15	Xamkor bank	11 423	15 854	19178	67	99	319	0,6	0,6	1,7
16	Ipak yo'li bank	8065	11 701	14228	151	251	218	1,9	2,1	1,5
17	Orient Finans bank	5140	8 448	12565	33	25	23	0,6	0,3	0,2
18	Invest Finans bank	4777	6 431	7929	26	68	109	0,6	1,1	1,4
19	Trast bank	3496	4947	5705	132	101	195	3,8	2,0	3,4
20	Davr bank	3092	5 004	7019	48	32	135	1,6	0,6	1,9
21	Tenge bank	2474	4208	4217	181	109	98	7,3	2,6	2,3
22	Aziya Alyans bank	2174	3712	3865	31	55	78	1,4	1,5	2,0
23	Anor bank	2146	3169	6858	53	64	167	2,5	2,	2,4
24	O'zKDB bank	2032	2651	3367	0,0	0,0	0	0,0	0,0	0,0
25	Tibisi bank	1507	3750	7468	31	73	160	2,1	1,9	2,1
26	Garant bank	1132	922	797	87	43	118	7,7	4,7	14,0
27	Ziraat bank	1098	1595	2028	32	36	66	2,9	2,2	3,3
28	Universal bank	870	1162	1675	16	35	19	1,9	3,0	3,3
29	Ravnaq bank	341	249	190	244	212	0	71,6	85,3	0,0
30	Madad invest bank	173	292	307	34	39	74	19,9	13,2	24,1
31	Əron Soderot bank	21	22	21	0,8	4	1	3,7	17,6	6,6
32	Uzum bank	0,0	50	131	0,0	0,0	0	0,0	0,0	0,0
33	Apeks bank	-	-	213	-	-	0	-	-	0,0
34	Haët bank	-	-	1161	-	-	0	-	-	0,0
35	Yangi bank	-	-	138	-	-	12	-	-	8,7
36	Smart bank	-	-	68	-	-	0	-	-	0,0

4 Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida (banklar kesimida) ma'lumotlar, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/843940/>



Respublikamiz tijorat banklarida kredit qo'yilmalari hajmi izchil o'sib bormoqda. 2023-yil 1-yanvar holatida kredit qo'yilmalari 390 049 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil 1-yanvarda bu ko'rsatkich 471 406 milliard so'mga yetgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga esa jami kredit qo'yilmalari 533 121 milliard so'mni tashkil qilgan. Bu esa banklar kredit portfelining muntazam kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Muammoli kreditlar bo'yicha tahlillar esa muayyan xavflarning mavjudligini ko'rsatmoqda. 2023-yil 1-yanvar holatiga muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 3,6 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 13 992 milliard so'mga teng bo'lgan. 2025-yil 1-yanvar holatida esa ushbu ko'rsatkich 4,0 foizgacha oshib, 16 621 milliard so'mga yetgan. Bu esa ikki yil davomida 0,4 foiz punktlilik o'sishni anglatadi.

Tijorat banklari kesimida olib borilgan tahlillar bir qator muhim holatlarni aniqladi. Jumladan, AT Xalq bankida 2023-yilda muammoli kreditlar ulushi 11,9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 7,6 foizga, 2025-yilda esa 4,2 foizga pasaygan. Bu ijobiy holat bo'lib, bankning kredit portfeli sifat jihatdan yaxshilanganini anglatadi. AVO bankda (ilgari O'zagroeksportbank) esa 2023-yilda muammoli kreditlar jami kredit qo'yilmalarning 96,3 foizini tashkil qilgan. 2024-yilda bu ko'rsatkich nolga tenglashgan bo'lsa-da, 2025-yilda yana 12,5 foizgacha oshgan. Bu esa bank faoliyatida muammoli kreditlar bilan bog'liq muammolar haligacha barham topmaganligini bildiradi.

Ipoteka bankda esa 2025-yil 1-yanvar holatiga muammoli kreditlar ulushi 12,5 foizni tashkil etib, bu yuqori darajadagi xavfli holat hisoblanadi. Tenge bankda 2023-yilda muammoli kreditlar ulushi 7,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 14,0 foizgacha oshgan. Bunday keskin o'sish moliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi muhim omildir.

Madad Invest bankda ham o'zgaruvchan, ammo yuqori darajadagi muammoli kreditlar ko'rsatkichlari qayd etilgan. Xususan, 2023-yilda 19,9 foiz, 2024-yilda 13,2 foiz, 2025-yilda esa 24,1 foizni tashkil etgan. Bu esa bankda moliyaviy intizomning yetarli emasligini ko'rsatadi. Eron Soderot bankda 2024-yilda muammoli kreditlar darajasi 17,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 6,6 foizgacha pasaygan. Biroq bu raqam yuqori chegara – 5 foizlik normal ko'rsatkichdan atigi 1,6 foiz punktga yuqori bo'lib, tizimda hanuz muayyan xavflar saqlanib qolganini bildiradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aniqlanishicha, oltita tijorat bankida muammoli kreditlar belgilangan maksimal darajadan ham oshib ketgan. Jumladan, 2023-yil holatiga ko'ra bu banklardagi muammoli kreditlar hajmi 3 136 milliard so'mni tashkil etgan. 2024-yilda bu ko'rsatkich 3 025 milliard so'mga kamaygan bo'lsa-da, 2025-yilga kelib 5 733 milliard so'mgacha keskin oshgan. Bu esa 2025-yilda oldingi ikki yilga nisbatan muammoli kreditlar hajmi sezilarli darajada ortganini ko'rsatadi. Natijada tijorat banklarining 2025-yil 1-yanvar holatiga 14 344 milliard so'mlik aktivlari nollikvid aktivlarga aylangani kuzatilgan. Bunday holat banklarning moliyaviy sog'lomligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, milliy moliyaviy tizim uchun ham xavf tug'diradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muammoli kreditlar tijorat banklari uchun jiddiy xavf tug'diradi, chunki ular banklarning daromadliligi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday kreditlarni samarali boshqarish bankning moliyaviy salomatligini saqlab qolish uchun muhim omil hisoblanadi. Kredit qobiliyatini baholash jarayonlarini takomillashtirish, kredit monitoringini o'z vaqtida amalga oshirish orqali banklar nafaqat muammoli kreditlarning paydo bo'lish xavfini kamaytirishi, balki potentsial yo'qotishlardan ham himoyalaniishi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotga asoslangan holda, muammoli kreditlar darajasini maqbul chegarada ushlab turish bank tizimining investitsion jozibadorligi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Respublikamiz tijorat banklarida muammoli kreditlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish va samaradorligini ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklar darajasini pasaytirish uchun, avvalo, mahsulotlarga bo'lgan talabni aniqlik bilan prognozlash orqali marketing tadqiqotlarining sifatini oshirish lozim. Shuningdek, kredit oluvchining obro'siga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab, ularning ta'sir darajasiga baho berish muhimdir. Kredit ajratilishidan avval mijozning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, qarzni qaytarish salohiyatini belgilovchi indikatorlarni baholash orqali risklarni oldindan aniqlash mumkin.

Tasniflangan kreditlar tarkibini takomillashtirish orqali kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining me'yoriy darajasini ta'minlash muhimdir. Buning uchun garovga qo'yilayotgan ob'ektlarning likvidliligi, mijozlarning pul oqimlarining barqarorligi, kredit to'lov layoqatining umumiy pul oqimi asosida baholanishi lozim. Shu jarayonda kredit portfelining diversifikatsiyasi, garov ob'ektlarining real bozor qiymatini aniqlash hamda aktivlarning tezkor realizatsiya qilinishi mumkinligi alohida hisobga olinishi kerak.

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan kredit monitoring tizimini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida kredit shartlarining bajarilishi ustidan samarali nazorat o'rnatish, kredit tashkilotlari xodimlarining risklarni baholash ko'nikmalarini muntazam ravishda rivojlantirish choralari muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq muddatli istiqbolda esa kredit risklarini kamaytirishga qaratilgan qonunchilik asoslarini kuchaytirish, muammoli kreditlar bo'yicha "yomon bank" (bad bank) tizimini joriy qilish, shuningdek, banklararo tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish dolzarb vazifalardan biridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF–5992-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4811025>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi «Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–283-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-6076135>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari. – www.cbu.uz.
5. Soliyev A.A., Abdullayeva M.M. Bank ishi asoslari. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2022. – 324 b.
6. Ibragimov M.X. Tijorat banklarida kreditlash asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. – 280 b.
7. Ahmedov M.Q., Qodirov A.B. Bank ishi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020. – 312 b.
8. World Bank Group. Global Financial Development Report 2022: Bank Regulation and Supervision. – Washington, D.C., 2022.
9. International Monetary Fund. Managing Non-Performing Loans in the Banking Sector. – IMF Working Paper No. WP/20/109, 2020.
10. European Central Bank. Report on Financial Structures. – Frankfurt am Main: ECB, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>